

O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki tomonidan  
2024-yil "10" sentabre da  
82/1 raqami bilan  
ro'yxatga olindi  
O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki raisi  
birinchi o'rinosari

N.N. Saydullayev



**"Madad Invest Bank"  
aksiyadorlik tijorat banki  
Ustaviga kiritilgan  
o'zgartish va qo'shimchalar**

**"TASDIQLANGAN"**

"Madad Invest Bank"  
aksiyadorlik tijorat banki  
aksiyadorlarining  
navbatdan tashqari  
umumiylig'i ilishining 2024-  
yil "27" iyuldaggi 19-sonli  
yig'ilish bayonnomasiga  
asosan

Kuzatuv kengashi raisi

SH.R.Xadjizadayev



TOSHKENT – 2024 yil

**“Madad Invest Bank” aksiyadorlik tijorat banki Ustaviga kiritilgan o‘zgartish va qo‘srimchalar.**

**1. Ustavning 103-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

103. Bank quyidagi hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak:

-aksiyadorlarga dividend to‘lash, Bank Kuzatuv kengashi, Boshqaruv a’zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlash bo‘yicha to‘lovlarning umumiyligi summasi Bankning o‘z kapitalining o‘n foizidan ortganda;

-joriy yoki o‘tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo‘lganda.

**2. Ustavning 123-bandi quyidagi tahrirda 2-xatboshi va 3-xatboshi bilan to‘ldirilsin:**

Bank yoki u joylashtirgan aksiyalarning xammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar Bankka yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risidagi da’vo bilan Bank Kuzatuv kengashi a’zosi, Bank Boshqaruvi raisi yoki Bank Boshqaruvi a’zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Sud Bank Kuzatuv kengashi a’zosini, Boshqaruv raisini yoki Boshqaruv a’zosini bankka mulkiy zarar yetkazilganlikda aybdor deb topgan taqdirda, ushbu a’zoning, Boshqaruv Raisi yoki boshqaruv a’zosining vakolatlari sudning qaroriga ko‘ra, ularning rahbarlik lavozimini egallash ta’qiqlangan holda, bir yildan kam bo‘limgan muddatga tugatilishi mumkin.

**3. Ustavning 146-bandi quyidagi tahrirda 35-xatboshi bilan to‘ldirilsin:**

aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

**4.Ustavning 162-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

162.Bank Kuzatuv kengashining a’zolari quyidagilar natijasida bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar xisoblanadi:

-Chalg‘ituvchi axborot yoki bila turib yolg‘on axborot taqdim etganlik;

-O‘zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatları” va aksiyadorlarni xuquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

- Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalgalashidan manfaatdorlik mavjud bo‘lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan, bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o‘zlarini yoki affillangan shaxslar tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik;

Agar ushbu band qoidalari muvofiq bir necha shaxs javobgar bo‘lsa ularning bank oldidagi javobgarligi solidar bo‘ladi.

Bank Kuzatuv kengashi a’zolari unga o‘zlarining aybli harakatlari (harakatsizligi) tufayli yetkazilgan zarar uchun, agar amaldagi qonun hujjalari yoki ushbu Ustavda boshqa asoslar va javobgarlik miqdorlari ko‘rsatilgan bo‘lmasa, bank oldida javobgar bo‘ladilar.

Bunda bankka zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergen yoki ovoz berishda ishtirok etmagan Bank Kuzatuv kengashining a'zolari javobgar bo'lmaydilar.

Agar ushbu bandning qoidalariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa, ularning bank oldidagi javobgarligi solidar bo'ladi.

Bank yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) bankka yetkazilgan zararlarning o'mini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Bank Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud Bank Kuzatuv kengashi a'zosini bankka mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, sud qaroriga ko'ra ularning vakolatlari xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallash ta'qiqlangan holda kamida 1 (bir) yil muddatga tugatilishi mumkin.

#### **5.Ustavning 168-bandи quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

168.Boshqaruv Raisi va Boshqaruv a'zolari bilan shartnoma 3 (uch) yil muddatga tuziladi, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish masalasi har yili tegishli Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi. Boshqaruv raisi bilan mehnat shartnomani Bank Kuzatuv kengashi raisi imzolaydi. Boshqaruv a'zolari bilan mehnat shartnomalarini Bank nomidan Bank Boshqaruvi Raisi imzolaydi.

#### **6. Ustavning 174-bandи quyidagi tahrirda 24-xatboshi bilan to'ldirilsin:**

Bankda qonunchilikka va xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritilishini va moliyaviy hisobot taqdim etilishini, shuningdek hujjatlar aylanishini va hujjatlarni saqlanishini tashkil etadi;

#### **7. Ustavning 175-bandи quyidagi tahrirda 2-xatboshi, 3-xatboshi, 4-xatboshi, 5-xatboshi, 6-xatboshi, 7-xatboshi, 8-xatboshi va 9-xatboshi bilan to'ldirilsin:**

Boshqaruv raisi va a'zolari quyidagilar natijasida bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalq'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

Boshqaruv a'zolari o'zlarining aybli xarakatlari (xarakatsizligi) tufayli yetkazilgan zarar uchun, agarda amaldagi Qonun xujjatlari yoki ushbu Ustavda boshqa asoslar va javobgarlik miqdorlari ko'rsatilgan bo'lmasa, bank oldida javobgar, shuningdek moddiy javobgar bo'ladi. Bunda bankka zarar yetkazilishiga olib kelgan qarorga qarshi ovoz bergen yoki ovoz berishda ishtirok etmagan bank boshqaruvi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarni xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik uchun;

bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zları yoki affillangan shaxslar tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni

taklif etganlik uchun;

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir necha shaxs javobgar bo'lsa ularning bank oldidagi javobgarligi solidar bo'ladi.

Sud bankning boshqaruvi a'zosini bankga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, sud qaroriga ko'ra ularning vakolatlari xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallah taqiqlangan holda kamida 1 (bir) yil muddatga tugatilishi mumkin.

Agar Bank boshqaruvi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida bankka zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Bank boshqaruvi raisining yoki boshqaruvi a'zolarining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'limgan taqdirda bank majburiyatlarini bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

#### **8. Ustavning 179-bandi quyidagi tahrirda 7-xatboshi bilan to'ldirilsin:**

Bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruq, farmoyishlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi. Boshqaruvi Raisi amaldagi qonunchilik, mazkur Ustav va Bankning boshqa ichki me'yoriy hujjatlariga binoan boshqa vakolatlarga ega bo'ladi.

#### **9. Ustavning 181-bandi quyidagi tahrirda 2-xatboshi, 3-xatboshi, 4-xatboshi, 5-xatboshi, 6-xatboshi, 7-xatboshi va 8-xatboshlari bilan to'ldirilsin:**

Bank Boshqaruvi raisining javobgarligiga quyidagilar kiradi:

chalq 'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlarini va aksiyadorlarning xuquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik uchun;

bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan, bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zi yoki affillangan shaxslar tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik uchun;

Bank Kuzatuv kengashiga bank faoliyatiga zarur bo'lgan xarajatlar, xaridlarini talabnomá asosida kengashga tasdiqlash uchun kiritadi, xarajatlar va xaridlar ma'qullangandan so'ng ijrosini ta'minlaydi. Bank raxbaryati va xodimlarining oylik ish xaqi va rag'batlantiruvchi to'lovlar miqdori va summasini Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanishini ta'minlaydi. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullanmagan xarajatlar amalga oshirganligi uchun shaxsiy javobgar hisoblanadi.

Mijozlarga ajratiladigan kredit mablag'larini belgilangan tartibda kredit xujjatlarini tayyorlab, muddati, kredit foizlari va kredit ta'minoti bo'yicha Bank Kuzatuv kengashi roziliginini olganidan so'ng ajratilishini ta'minlaydi. Bank Kuzatuv kengashi roziligi olinmagan kreditlar uchun shaxsiy javobgar xisoblanadi. Kredit mablag'ları ajratish jarayonida mijozlarning moliyaviy ahvoli to'g'risidagi xujjatlarning xaqqoniyligiga va xuquqiy tomonidan ishonchliliga shaxsan javobgar xisoblanadi.

Mijozlarga berilayotgan bank kafolati, kredit, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar sotib olish amaliyotlari, overnayt amaliyotlari, depozit va boshqa qarz berish majburiyatları, davlat obligatsiyalari bilan bog'liq amaliyotlarni Bank Kuzatuv kengashi roziligini olib amalga oshirishni ta'minlaydi.

**10. Ustavning 206-bandı quyidagi tahrirda bayon etilsin:**

206.Bankda ichki nazorat holatini, jumladan moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligi, hisobning ishonchliliği va aniqligi, hisobotlarning to'liqligi va ob'ektivligi, amaldagi qonunchilikka, Bank Ustavi va boshqa ichki me'yoriy xujjatlarga, bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalari va tartiblariga riosa qilinishini tekshirish (audit) va monitoringini amalga oshiruvchi, bevosita Bank Kuzatuv kengashiga bo'ysunuvchi Ichki audit xizmati (departamenti) faoliyat ko'rsatadi. Ichki audit xizmati o'z faoliyatini, shuningdek, ichki audit tekshiruvlarini va monitoringini amaldagi Qonunchilik, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan "Ichki audit xizmati to'g'risida"gi Nizom hamda Bankning ichki me'yoriy hujjatlariga, shuningdek, ichki auditga oid xalqaro standartlarga binoan amalga oshiradi.

**11. Ustavning 216-bandı quyidagi tahrirda 4-xatboshi bilan to'ldirilsin:**

Taftish komissiyasi Bankda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonunchilikning va Bank ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga riosa qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Bank Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi.

Boshqaruv raisi



U.U.Tavakkalov